

**OLIY TA'LIMDA TALABALARING NUTQIY KO'NIKMALARINI
TIZIMLI RIVOJLABTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

Subxanova Selbi Bozorboy qizi

*Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti Turkiy tillar fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Maqolada talabalar nutqiy kompitensiyasini rivojlantirish, nutqiy ko'nikmalarning tizimli shakllantirilishida adabiy til unsurlarining ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Oliy ta'linda talaba-yoshlarning hududiy joylashuvi, etnik tarkibi va dioliktologik xususiyatlarini inobatga olgan holda og'zaki nutq shaklini yanada yaxshilashga qaratilgan metod va tavsiyalar berib o'tilgan. Adabiy til shakllarida og'zaki nutqning ifodalanish xususiyatlari pedagogik muammo sifatida tahlil etilgan. Shuningdek, oliy ta'linda shevaga xos so'zlar, jargon va salbiy bo'yoq dor so'zlardan foydalanmaslikning ustuvor ahamiyati haqida mulohazalar mavjud. Oliy ta'linda adabiy til shakllarining qarluq, qipchoq, o'g'uz lahjalari bilan ifodalanishi yuzasidan olib borilgan pedagogik tadqiqotlarning samaradorligi yuzasidan nazariy qarashlar mavjud.

Kalit So'zlar: Nutqiy kompitensiya, lahja, jargon so'zlar, dialektlar, uslubiy bo'yoq dor so'zlar, parazit so'zlar, nutq terapiyasi, dislaliya hodisasi

Ta'lim ishini tashkil etishning bosh omillaridan biri talaba-yoshlarning intellektual dunyoqarashini shakllantirish, badiiy estetik jozibaning nutqiy ko'rinishi yaratishdan iboratdir. Oliy ta'lim talaba-yoshlarining nutqiy kompitensiyalarini oshirishdan ko'zlangan maqsad ta'lim tizimini adabiy til an'analariga xos shaklda ifodala masalasi bilan yuzaga keladi. Shuningdek, kishilik jamiyatimizda mavjud muomala shakllarining o'zlashma so'zlar, shevaga xos so'zlar bilan ham ifodalanishi ko'zga tashlanadi. Oliy ta'linda talaba-yoshlarning to'g'ri nutq tuzishi, muloqot layoqadining parazit so'zlar va nutq buzilishlari bilan aloqador bo'lgan dislaliya hodisasiidir. Nutq buzilishlari orasida eng ko'p tarqalgan kamchilik bu – dislaliyadir. Dislaliya grekcha so'zdan olingan bo`lib, dis-buzilish, laliya-nutq degan ma'nolarni anglatadi. Bu kasallik yengil formadagi nutq buzilishi hisoblanib, uni vaqtida to`g'ri tashxislash va davolash orqali bartaraf etish mumkin. Har qanday bola dislaliyadan aziyat chekishi mumkin, ammo tilni rivojlantirish va o'zlashtirishga ta'sir qiluvchi xavf omillari mavjud. □Funksional dislaliya. Funksional dislaliya □ bu nutqning periferik organlarining atipik faoliyatining mahsulidir. U tilning artikulatsiya jarayonida namoyon bo`ladi, ayniqsa, □r□, □s□, □z□, □l□, □k□ va □ch□ fonemalarining yasalishida yaqqol ko'rindi. Dislaliyaning bu turi eng keng tarqalgan. Bu, shuningdek, bola bajaradigan ijtimoiy-madaniy kontekst tomonidan ishab

chiqariladi. Quyidagi sabablar bu kasallikni keltirib chiqarishi mumkin:

- *past ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy daraja;
- *oilaning bola tarbiyasiga qiziqishining yo`qligi;
- *pedagogik qarovsizlik;
- *oiladagi ikki tillilik.

Organik dislaliya Organik dislaliya nutq apparati organlarining noto`g`ri shakllanishi bilan kelib chiqadi. Qaysi nutq a□zosida kamchilik bo`lishiga ko`ra:

- *organik lab dislaliyasi;
- *organik til dislaliyasi;
- *organik stomatologik dislaliya;
- *palatal organik dislaliyalar;
- *burunning organik dislaliyasi;

*mandibulyar organik dislaliyalar. Agar bola nutq apparatidan to`g`ri foydalanmasa, u so`zlarni noto`g`ri talaffuz qiladi. Dislaliyani qanday davolash mumkin? Dislaliya bilan kurashish uchun eng yaxshisi nutq terapevti yoki til terapevti orqali erta tashxis qo`yish va aralashuvdir. Dislaliyaning har qanday turini to`g`ri terapiya bilan yaxshilash mumkin¹. Aksariyat hollarda oilalardagi ko□p tillilik talaba-yoshlarning nutqiy muloqot shakllarida ham o□z aksini topadi. Bu borada ota-onva mas□ul shaxslardan farqli o□laroq pedagogik qarovsizlik ham talabalar nutqida qusurlar paydo bo□lishiga sabab bo□ladi. Oliy ta□limda talaba-yoshlarning nutqiy ko□nikmalarining to□g□ri tarzda ifodalanishini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

Birinchi bosqich. Oliy ta'lim tizimida pedagogik ko'nikmalarining nutq bilan bog'liq shakllarini oshirishda o'quvchilarga audiovizual materiallar bilan shug'ullanishi tavsiya etiladi. Bunda, asosan, ular o'zлari yo'lqo'yayotgan kamchilik va xatolarga yechim sifatida audiolarni tinglash, audiolar natijasida ular o'zлari yo'l qo'ygan kamchilik va xatolarni tushunib yetishlari va ularni bartaraf etishlari lozim. O'zbek adabiy tilining qarluq, qipchoq, o'g'uz shevalaridagi so'zlarning o'zaro shakllanishi va talaffuz shakllarining bir-biridan farqli bo'lishi bunga misoldir.

Ikkinci bosqich: Ushbu bosqichda oliy ta'lim talabalarining nutqiy ko'nikmalarini baholash inobatga olinadi. Bunda, asosan, ularning tizimli ravishda nutqiy shakllarini oshirishi va ularni nutqini shakllantirishda kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan sun'iy intelekt va turli xil ovozli xabarlarni matnga aylantiruvchi vositalardan foydalanish mumkin. Shuningdek, ular asosan, audiolarni yozish va audiolarning matn ko'rinishidagi shakllarini guvohi bo'lishlari mumkin. Bu esa ular talaffuzining naqadar to'g'ri yoki aniq ekanligini isbotlashga yordam beradi va shu bilan ular o'z talaffuzini qayta tahlil qilish va talaffuzidagi kamchiliklarni yo'lga qo'yish

¹ Aripov Zoirjon, Aripova Ominaxon "Nutq buzilishi turlari va ularning xususiyatlari" maqola. Research Focus, Uzbekistan - 2022

borasida bilimlarga ega bo'lishadi. "Oliy ta'lim talabalarni nutqiy ko'nikmalari nutqiy kompetensiya bilan birgalikda tizimli ta ravishda amalga oshirilishi lozim, chunki avval og'zaki nutqning shakllanishi so'ngra dastlabki asosga tayangan holatda yozma nutqning shakllanishi ham o'zaro mutanosiblikni tashkil etadi"². Bunda parazit so'zlardan xoli bo'lish, lahjalaridan foydalanish, dialektlarning uslubiy bo'yoqdor so'zlar bilan ifodalanish yoki ifodalamaslik xususiyatlari albatta inobatga olinadi.

Uchinchinch bosqich: Bu bosqichda hududiy leksikaga oid so'zlarning shevaga xosligi yoki bir hududdan ikkinchi hududga ko'chib o'tuvchi aholi tashuvchi so'zlar bilan ifodalanadi. Ko'p holatlarda parazit so'zlarining nutqiy takrorlar yoki chet o'zlashma so'zlarining moslashgan shakllari bilan ifodalanishi ayni masalalarning ochib berilishida qo'l keladi. Oliy ta'lim o'quvchilari bularning farqiga borgan holatda so'zlarning muqobil variantlari shakllantirishi lozim. Yanada tilimizdagи so'zlarning variantdosh shakllarini qo'llashda mutanosiblik yuzaga keladi. Misol uchun: kaptar, kabutar kabi.

Oliy ta'limda talabalarni nutqiy ko'nikmalarini tizimli rivojlantirishda pedagogik muammo sifatida tahlil va uslubiy bo'yoqdor so'zlardan foydalanishda nutq terapiyasi ham katta rol oynaydi. Parazit so'zlardan qutulish uchun nutq terapiyasi katta rol o'ynaydi. Bu borada logopediya va nutqiy kompetensiyaning lahjalar va jargon so'zlardan xoli bo'lgan holatini adabiy til unsurlarning saqlanishiga yordam beradi. "O'qituvchining kasbiy faoliyatining asosiy vazifasi talabalarga ma'lum bilimlarni berishdir. Shuning uchun ham o'qituvchi nutqi shunday tashkil yetilishi va taqdim yetilishi kerakki, u uzatgan ma'lumot talabalar tomonidan to'liq va qiyinchiliksiz idrok qilinsin. Shubhasiz, talabalar e'tiborini bo'lajak kasb egalari nutqi sifatida ularning nutqi ma'lum bir baland va ravshanlik, aniqlik va ifodalilik bilan ajralib turishi zarurligiga qaratish zarur. O'qituvchining nutqi tinglovchilarga qaratilgan, u audiovizualdir. O'qituvchi hozir nima haqida gapirayotgan bo'lsa, talabalar nafaqat quloq orqali, balki idrokning vizual kanallari orqali ham idrok etadilar. "Eshitish orqali talabalar so'zni, uning asosiy ma'nosini va intonatsiyasini idrok etadilar ... vizual ravishda ... talabalar o'qituvchining yuz ifodalarini, shuningdek, bayonot bilan birga keladigan uning xatti-harakatlarining hissiy komponentining ekspressivligini idrok etadilar". Talaba nutqi qiziqish uyg'otadigan darajada ifodali bo'lishi kerak. Afsuski, ko'pincha talaba nutqida nutqning rang-barangligi bilan ishlataladigan intonatsiya vositalarining bir xillagini ta'kidlash kerak"³.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, nutq kamchiligiga ega bo'lgan talabalarning nutqini yaxshilash jarayonida ota-onalar va pedagoglar doimo o'z xulq-atvorini va

² Ayupova M.Y. Logopediya. Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Toshkent, "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti", 2007

³ Irgasheva, U. R. (2021). Formation of Professional Competencies of the Students in the Process of Studying the Educational Program "STEAM-Technologies in Education". International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences, 1(6), 76-80

o‘zining mavqeyini anglashi lozim. O‘zaro tushunish, rag‘batlantirish, o‘zaro hurmat, tartibni saqlash, oila a’zolari o‘rtasidagi singari pedagog va ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir nutq kamchiligiga ega talaba-yoshlardagi psixogen reaktiv holatlar profilaktikasida jiddiy rol o‘ynaydi. Xususan, ushbu holat duduqlanuvchi o‘quvchilar uchun dolzarbdir. Bolalar nutqiy nuqson bilan bog‘liq shaxsiy kechinmalar, nutq qo‘rquvi, nutqiy muloqotni talab qiluvchi vaziyatdan qochish va hoakazo holatlar kuzatilsa, logoped o‘z ishida muhim psixoterapevtik aksentni kuchaytirishi lozim. Bu aksent va psixoterapiya shakllari har doim bola yoshiga va uning individual psixologik ta’sirlanish o‘zining xususiyatlarga bog‘liq bo‘ladi. Nutqiy nuqson belgilarini yaxshi bilish va hisobga olish zarur, shuningdek, uning to‘liq kompensatsiyasi ham e’tiborga olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aripov Zoirjon, Aripova Ominaxon ”Nutq buzilishi turlari va ularning xususiyatlari” maqola. Research Focus, Uzbekistan - 2022
2. Ayupova M.Y. Logopediya. Darslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Toshkent, “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2007.
3. Irgasheva, U. R. (2021). Formation of Professional Competencies of the Students in the Process of Studying the Educational Program “STEAM-Technologies in Education”. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences, 1(6), 76-80